

YAGONASAN, MUQADDAS VATANIM, SEVGI VA SADOQATIM SENGGA BAXSHIDA, GO'ZAL O'ZBEKISTONIM!

www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:31 (66988)

2014-yil
4-avgust

TONG YULDUZI

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

XORAZMIY IZDOSHLARI

XALQARO MUSOBAQADA

HECH KIMDAN KAM EMASLIKLARINI ISBOTLASHDI



N. SULTONOV kollaji

Shu yilning 21-26 iyul kunlari Janubiy Koreyaning Tedjon shahrida maktab o'quvchilari o'rtasida matematika bo'yicha xalqaro musobaqa bo'lib o'tdi.

Unda to'rt nafar vakillarimiz – Bulung'ur tumanidagi 15-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Sardor Saidqulov, Buvayda tumanidagi 2-IDUM-ning 7-sinf o'quvchisi Jasurbek Imomov, Kitob tumanidagi 1-IDUMning 8-sinf o'quvchisi Yulduz Ne'matova, Olot tumanidagi 31-IDUMning 8-sinf o'quvchisi Davrbek Oltiboyev yurtimiz sharafiga munosib himoya qilib, ustozlar ishonchini oqlashdi.

Musobaqa yakka tartib va jamoaviy bellashuvlar asosida o'tkazilib, hay'at tomonidan yakka tartibdagi tur bo'yicha 15 ta, jamoaviy turga 10 ta masala taqdim etildi. Yakka bahslarida Jasurbek Imomov kumush medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, Yulduz Ne'matova va Davrbek Oltiboyev

Xushxabar
sertifikat bilan taqdirlandi. Jamoalar bellashuvida tengdoshlaringiz 10 ta masaladan 8 tasini yechib, umumjamoa hisobida 2-o'rinni egallashdi.

– Xalqaro olimpiadada dunyoning ko'plab mamlakatlari vakillari bilan bahsga kirishganimizda o'zbek o'g'il-qizlarining iqtidori ulardan qolishmasligiga ishonch hosil qildik, – deydi Jasurbek Imomov. – Masalalarni yechish paytida tajribali ustozlarimizdan olgan saboqlar asqotdi. Buning uchun ularga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Mazkur nufuzli musobaqada respublikamiz jamoasi ilk bor qatnashganiga qaramay, 31 davlatdan kelgan 600 nafarga yaqin iqtidorli o'quvchilar orasida bilim va zakovatda kam emasliklarini amalda isbotlashdi. Biz esa iqtidorli tengdoshlaringizga barakalla va aslo bo'sh kelmang, deymiz!

Ushbu sonda:

OROMGOHDA HAR KUNI BAYRAM

3-bet

TEATR – HAYOT KO'ZGUSI

4-bet

Sovg'a



6-bet



Nasriy masallar

8-bet

MUSTAQILLIK MADHI

BOLALAR IJODIDA

Eng ulug' eng aziz bayramimiz yaqinlashgani sari qalbimizda faxr-iftixor tuyg'usi jo'sh uradi. «Shu aziz Vatani barchamizniki», deya hayjirgeng keladi. Shuning barobarida yurtimizning faroyon kelajagi va iqboli uchun yashash, mehnat qilish oliy saodat ekanligini yana bir bor his etamiz.

Shukurki, diyorimiz tinch, osmonimiz musaffo. Biz har bir ne'matni qadrlaydigan, asrab-avaylaydigan xalqimiz. Tinchligimiz – eng aziz ne'mat. Shu ma'noda tinchlik, xotirjamlikni ko'z qorachig'idek asrash nihoyatda muhimligini anglaymiz va atrofga yanada hushyorroq nazar solamiz.

Har go'shada obodlik, bunyodkorlik ishlari avjida, o'g'il-qizlarimiz sog'lom bo'lib, puxta bilim olib, ota-onasi, yurt ishonchini oqlash payida. Shu kezlarda yurak-yuragimizdan, ming bora shukur, deymiz. Bu so'zni aytganimiz sari Vatandan faxrlanish tuyg'usi qalbimizni nurlantirib boraveradi.

Shukurki, bugun diyorimizda keksa-yu yosh «Yagonasan, muqaddas Vatanim, sevgi va sadoqatim senga baxshida, go'zal O'zbekistonim!» degan ezgu g'oya

bilan yashamoqda. Bu tuyg'u ziyrak gazetxonlarimizning qalbidan kechayotganini, ularning tahririyatga yo'llayotgan maktublari mazmunidan ham anglash mumkin.

Mustaqilligimizning 23 yilligi hamda «Sog'lom bola yili» munosabati bilan e'lon qilingan «Mustaqillik madhi bolalar ijodida»

e'tiborimizni tortdi. U qishlog'ining betakror tabiati, hamqishloqlarining mehribonligi, yoshlarning bilimlili haqida to'liqlanib yozadi. Tengdoshingiz Ozodaxon uchun Vatani tuyg'usi barcha narsadan qadrliroq ekanini anglaysiz. Yoki N a m a n g a n shahridagi 58- ixtisoslashtirilgan Davlat maktabining 5-sinf o'quvchisi Ulug'bek To'yehiyevning «Mustaqillik» she'rini olaylik. U «Ilm-fan cho'qqisini yo'llarin ko'ring, lozim deb bilmagan ishlarni qo'ying», deydi va

rasmlarida bayramlar tinch va osuda yurtgagina yarashishini zavq bilan ifodalagan.

Tanlov ishtirokchilarining ijodiy ishlari bir-biridan kam emas. Har bir ijodiy ishni oliy o'ringa loyiq, deyish mumkin. Vaholanki, Vatani haqida kuylovchi insonning qalbi osmon kabi beg'ubor, tog'lar singari yuksakdir. Bu beg'uborlik va yuksaklik yosh yuraklarni yangi-yangi maqsad – marralar, yutuqlar sari yetaklashi, shubhasiz.

Quyida tanlov ishtirokchilarining ijodiy ishlari e'tiboringizga havola etamiz. Ko'ring, o'qing, zavqlaning va siz ham Vatani haqida kuylang.

Feruza SOYIBJON qizi



Kamola SOBIROVA, Xorazm viloyati, Urganch tumanidagi 21-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi

an'anaviy respublika tanloviga kelayotgan ijodiy ishlarni birma-bir ko'zdan kechiramiz. Istiqlolni tarannum etuvchi she'rlar, bolajonlarning bayramona kayfiyatlarini aks ettirilgan rasmlar, insho va hikoyalar. Barida baxtiyorlik hissi mujassam.

Namangan viloyati, Kosonsoy tumanidagi 6-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Ozoda Ahadjonovanning she'rlari

tengdoshlarini har tomonlama komil inson bo'lishga undaydi.

N a v o i y viloyati, Zarafshon shahridagi 3-umumta'lim maktabi o'quvchisi Oysha Meylieva o'zining chizgan



Muhammadin BEKTURDIYEV, Urganch shahridagi 15-umumta'lim maktabining 3-sinf o'quvchisi

KO'KSIMDA DARAXTDAY BAYROG'ING, VATAN

Ko'ksimda bir nihol o'sar gurkirab, Ildizi mustahkam bo'lar daf'atan. Sirdaryo suvlari tutar unga lab, Ko'ksimda daraxtday bayrog'ing, Vatani.

Bag'ring to'la tengsiz dasht-u dalalar, Nafasingdan hurlik isi taralar, Oppoq qalb, nurlu yuz, ko'zi qoralar, Chakkangga yarashar chanog'ing, Vatani.

Endi yosh ko'rmaydi qarog'ing, Vatani. Navoiy, Nodira, Shirog'ing, Vatani. Beruniy, Buxoriy, Ibn Sinodek, Yoqayin bir umr chirog'ing, Vatani.

Meni onam kabi yo'rgaklab, quchding, Ulg'aytiriding, o'stiriding, shundan qaddim tik. Sen ko'z bo'lsang, menman qo'riqchi kiprik, Yashnayversin yaqin, yirog'ing, Vatani.

Mohiqul JABBOROVA, Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi 16-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

MUSTAQILLIK

Mangulik minbarin ustunin qo'rgan, Ulg'ayib kelguvchi avlodni suygan, Sog'ingan qalblarni sog'inchin tuygan, Tarix zarvarag'in varaqlab ko'ring, Ajdodlar merosin ko'zlargasuring, Qadrdon tuproqning qadri biling, Ilm-fan cho'qqisini yo'llarin ko'ring, Lol aylab dunyoni kashfiyot qiling, Lozim deb bilmagan ishlarni qo'ying, Istaylik, izlaylik imkon borida, Komillik yangrasin ko'ngil torida.

Ulug'bek TO'YCHIYEV, Namangan shahar, 58-ixtisoslashtirilgan Davlat umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi



QISHLOG'IMIZ BETAKROR

Qishlog'imiz kattakon, Odamlari mehribon, Bug'doy, paxta ekadi, Elga xizmat etadi, Mehnat qilib tolmaydi, Charchoq nima bilmaydi, Tog'bag'rida joylashgan, Gullar bilan dillashgan, Suvlar shildirab oqar, Bolalarga xush yoqar, Xullas, aytсам men sizga, Qishlog'imiz betakror, Bir tomoni paxtazor-u Bir tomoni bug'doyzor, Odamlari savodli, Yoshlari ham bilimli, Chiroyli maktablari, Kollej-u litseylari, Qishlog'imiz betakror, Odamlarda mehr bor.



Ozoda AHADJONOVA, Kosonsoy tumanidagi 6-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

«KIMYOGAR»DA MUSIQIY KECHA

Ayni kunlarda yurtimizdagi barcha dam olish maskanlarida bolajonlarning yozgi ta'tilni maroqli o'tkazishlari uchun turli tadbir va ekskursiyalar tashkil etilmoqda. «O'zbeknavo» birlashmasining Farg'ona viloyati bo'limi tomonidan uyushtirilayotgan turli tadbir va kechalar shular jumlasidandir.

Kuni kecha viloyatning «Kimyogar» nomli bolalar dam olish oromgohida xonanda Otabek Muhammadzohidning jonli ijroda konsert dasturi bolajonlarga havola etildi. Kechani o'tkazishdan maqsad yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarimizni musiqa, milliy san'atimizga bo'lgan qiziqishini oshirish, ular qalbida insoniy fazilatlarni shakllantirishdan iboratdir.

Tadbirda san'atkorning sho'x qo'shiqlariga yosh tomoshabinlar miriqib raqsga tushdilar. Shuningdek, kecha davomida «Qo'shnilar» nomli qiziqchilar guruhi o'z chiqishlari bilan ishtirokchilarga xush kayfiyat ulashdi.

Bir so'z bilan aytganda, bolajonlar konsertdan juda zavqlanishdi.

Shahnoza TOJIDDINOVA,
Farg'ona viloyati



TA'TIL MAZMUNLI O'TMOQDA

Yozgi ta'til tugashiga ham oz fursat qoldi. Hademay biz sog'ingan va bizni sog'itirgan qadrdon maktabimiz yana o'quvchilar bilan gavjum bo'ladi.

Ta'til kunlarida bo'sh vaqtdan unumli foydalanib, ingliz, nemis va rus tillarini o'rganyapman. Bundan tashqari, maktabimizda tashkil etilgan «Mohir qo'llar» to'garagiga qatnashyapman.

Qolaversa, sevimli gazetam «Tong yulduzi»ning har bir sonini muntazam kuzatib boraman. Ayniqsa, ijodkor tengdoshlarimning yozgan she'rlarini o'qib, zavqlanaman. Mening she'rlarim ham tuman gazetasida tez-tez chop etib turiladi. Kelajakda bundan-da go'zal she'rlar yozib, yurtimiz madhini kuylamochiman.

Mehrishod ERKINBOYEVA,
Xorazm viloyati, Hazorasp tumanidagi
15-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

Yoz faslining gashli o'zgacha.
Bu davrda musaffo tabiat
qo'ynida miriqib dam olishga
nima yetsin?!

MAROQLI HORDIQ - BOLALARGA TORTIQ

tarbiyachilar ularning miriqib dam olishlari uchun turli qiziqarli tadbirlar, musobaqalar, viktorinalar tashkil etishmoqda.

– Oromgohimizdagi shinam yotoqxona, oshxona, mo'jazgina kutubxona, suv havzalari, sport maydonchalari, tibbiyot xonasi bolajonlar xizmatida, – deydi dam olish maskani rahbari Karimjon Ro'ziboyev. – Bu yerda rassomlik, mohir qo'llar, kompyuter savodxonligi, mehnat va musiqa kabi to'garaklar faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, shaxmat-shashka, tennis, voleybol, basketbol, futbol, suzish, yengil atletika sport

turlari bo'yicha seksiyalar ham ishlab turibdi.

Darhaqiqat, tarbiyalanuvchilarning munosib hordiq chiqarishlari uchun bu yerda barcha shart-sharoit muhayyo etilgan.

Yaqinda oromgoh tarbiyalanuvchilaridan bir guruhi Farg'ona harbiy texnika litseyida bo'lib, ta'lim maskani faoliyati bilan yaqindan tanishishdi, sportning bir necha turlari bo'yicha litsey o'quvchilari bilan musobaqalar o'tkazishdi.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahri



OROMGOHDA HAR KUNI BAYRAM

«Sog'lom bola yili» Davlat dasturi doirasida bolalarni yozgi mavsumda dam oldirish va sog'lomlashtirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar hajmi va ko'lami tobora kengaymoqda.

Jizzax viloyati, Zomin tumanida joylashgan Amir Temur nomidagi yozgi oromgohda 500 nafarga yaqin bolajonlar hordiq chiqarib, salomatligini mustahkamlamoqda, ta'til kunlarini unutilmas taassurot bilan o'tkazmoqda.

– Oromgohimiz qayta ta'mirlangach, o'zgacha chiroy ochdi, – deydi dam olish maskani rahbari Mahbuba Shukurova. – O'quvchilarning mazmunli hordiq olishi uchun turli tadbir va uchrashuvlar o'tkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sport maydonchalari, suzish havzasi va axborot-resurs markazi bolajonlar ixtiyorida.

Muntazam tashkil etiladigan sport musobaqalari, fan, raqs, rassomlik, mohir qo'llar to'garaklari bolalarning bilimini oshirish va qiziqishi bo'yicha hunar o'rganishida qo'l kelmoqda.



Yaqinda Bobur Umrzoqov rahbarlik qilayotgan tasviriy san'at to'garagi a'zolari o'rtasida «O'zbekiston – go'zal Vatanim» mavzusida ko'rik-tanlov o'tkazildi.

Ko'rgazmada Jahongir Hakimov, Ibrohim Murodqulov hamda Bobojon Mamatqulov kabi yosh rassomlarning ishlari yuqori baholandi.

– Oromgohda yaratilgan sharoit menga juda yoqdi, mazza qilib dam olyapman, – deydi Jahongir Hakimov. – Qolaversa, rassomlik to'garagida mahorat sirlarini o'rganyapman.

Shuningdek, Asliddin Shukurov ustozlik qilayotgan ingliz tili to'garagida bolajonlar chet tilini puxta o'zlashtirishmoqda. Oromgohdagi har bir tadbir ushbu to'garak a'zolari – Muzaffar Hamidboyev, Dilmurod Oybekovning ingliz tilida ravon yod olgan she'rlarisiz o'tmaydi.

Taniqli olimlar, yozuvchi va shoirlar, ilg'or pedagoglar ishtirokida o'tkaziladigan mahorat darslari, o'quv mash'ulotlari va uchrashuvlar bolalarning turli fanlar bo'yicha bilimini yanada boyitishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu kabi sharoitlar mamlakatimizda bilimni, sog'lom, yuksak ma'naviyatli avlodni voyaga yetkazish yo'lida ko'rsatilayotgan yuksak e'tiborning amaliy namunasidir.

Tohir MULLABOYEV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist



KICHKINA DEMANG BIZNI...

Ma'lum bo'lishicha, kichik mehmonimizning ism-sharifi Nurmuhammad Nishonov bo'lib, u poytaxtning Yunusobod tumanidagi 206-maktabgacha ta'lim muassasasining katta guruh tarbiyalanuvchisi ekan. Bolakayning aytishicha, bog'chada Gulnora va Muhayyo ismli



N. SULTONOV olgan suratalar

Odatdagi ish kunlarimizdan biri. Tahririyat a'zolari gazetaning navbatdagi sonini tayyorlash ishlari bilan band. Shu payt eshik ochilib, xonaga jarangdor ovozda «Assalomu alaykum», deya 5-6 yoshli jajji bolakay o'rta yoshlar chamasidagi kishi hamrohligida kirib keldi.

Nurmuhammad bizga ustoz Dildora opadan o'rgangan ashulalaridan ham aytib berdi. Tahririyatga o'zi bilan birga chizgan rasmlarini ham olib kelgan jajji rassom bir varaqqa o'zining ismini ham yozib qo'yishni unutmabdi. Hali maktabga bormay turib, yozishni kimdan o'rgangani bilan qiziqqanimizda, otam Nurbek aka, onam Nodira opa va akam Iskandardan, deya javob berdi.

Besh yoshli Nurmuhammadning chizgan rasmini ko'rib, baho berish sizlarga havola.

BONU



tarbiyachi opalari matematikaga o'rgatish, nutq o'stirish, rus tili, applikasiya, qurish-yasash, rasm chizish, musiqa mashg'ulotlarini juda qiziqarli tarzda o'tisharkan.

Bo'sh vaqtingizda ko'proq nimalar bilan mashg'ulsiz, degan savolimizga u rasm chizish bilan qo'shiq kuylash, deya javob berdi. «Bulbulcha» bolalar dastasining faol a'zosi hisoblanmish

ELEKTRON QO'RIQCHI

ILHOMBEKNING IXTIROSI ANA SHUNDAY NOMLANADI

Bolajonlar, yozgi ta'tilda maroqli va mazmunli dam olayotgan bo'lsangiz kerak-a?! Bo'sh vaqtdan unumli foydalanib, biror-bir hunar o'rganayotganlar ham orangizda bisyor.



Surat muallifi: Z. NISHONOVA
Ilhombek.

Ana shunday iqtidorli tengdoshlaringizdan biri Jizzax viloyati, Yangiobod tumanidagi 12-umumta'lim maktabining 8-«V» sinf o'quvchisi Ilhombek RO'ZIQULOVdir.

– Tumanimizdagi «Barkamol avlod» bolalar markaziga uch yildan buyon qatnayman. Sizlarga o'zim yasagan elektron qo'riqchi haqida ma'lumot bermoqchiman. Bu qurilma eshik qulfiga o'rnatiladi. Agar qulf begona kalit bilan buralsa, moslama ovoz chiqarib, atrofdagilarni ogohlantiradi. Bu qurilmani xonadonlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida ixtiro qildim, – deydi

Ilhombek. Yosh ixtirochining ishlarini kuzatar ekanmiz, kelgusida undan yurtimiz taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan mukammal ixtirolar kutib qolamiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA



O'shanda, adashmasam 7-sinfda o'qirdim. Tengqur sinfdoshlarim kabi mening ham hayotiy xulosalarim ancha sodda, go'yoki biz uchun qiyin ishning o'zi yo'q.

Ayniqsa, maktabda o'tadigan bayram dasturlarini sahnalashtirish biz uchun juda oson edi. Sahna ko'rinishlarida rol ijro etish, go'yoki yodlangan so'zlarni qoldirmasdan aytish, ba'zi-ba'zida qandaydir yuz ifodalarga o'rin bersak, bas.

Bir kuni ustozimiz sinfimiz o'quvchilarini viloyat teatriga olib bordi. Biz o'yinqaroqlik bilan tomosha zaliga kirib borishdim. Bir muddat zal bezaklari diqqatimizni o'ziga tortgan

TEATR — HAYOT KO'ZGUSI

O'zbek Milliy akademik drama teatrlarining 100 yilligiga

bo'lsa-da, g'alag'ovurimiz tinmasdi. Shunda sahna o'rtasiga chiqib kelgan aktyor hammani jimlikka chortladi va tomosha boshlandi. Spektaklni tomosha qilar ekanman, shunga monand hayajonim ham orta borardi. E'tibor berib qarasam, deyarli barcha sinfdoshlarim ko'z o'ngida kechayotgan voqealardan sehrlanib qolishgandi.

sehrlanib qolishgandi.

Negadir shu vaqt maktab sahnalarida ijro etgan o'zimning jo'n «rol»larimni yodga oldim. Va angladimki, teatr voqealarni shunchaki aks ettirmaydi, balki hislarimizga bevosita ta'sir o'tkazib, bizni undan munosib xulosa chiqarishga undaydi.

Talabalik yillarimda ham poytaxtimizning ko'plab teatrlariga bordim. Bu muqaddas dargohlardagi ulug' ustozlar bilan uchrashdim. Ayniqsa, O'zbek Milliy

akademik drama teatri haqida ko'plab iliq fikrlarni aytish mumkin. Bu dargoh yurtimiz teatrlari yetakchisi sifatida uzoq yillardan buyon xalqimiz ma'naviyatini oshirishda munosib hissa qo'shib kelayotgan maskanlardan biridir. Teatr jamoasida bugungi kunda ko'plab el sevgan ustoz san'atkorlar ijod qilishmoqda. O'zbekiston xalq artistlari To'ti Yusupova, Rixsi Ibrohimova, Tesha Mo'minov, Erkin Komilov kabi zahmatkash ijodkorlar yillar davomida o'lmas obrazlar yaratishdi va yaratishmoqda.

Ana shu qutlug' maskanning bir


asrlik to'yi munosabati bilan Yurtboshimizning «O'zbek Milliy akademik drama teatrlarining 100

yilligini nishonlash to'g'risida»gi Qarori e'lon qilindi.

– Prezidentimizning mazkur Qarori biz san'atkorlar zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi, – deydi teatr direktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Mahmud Ismoilov. – Demak, biz bunday g'amxo'rlikni va muxlislar ishonchini oqlash uchun bor mahoratimizni ishga solishimiz zarur.

Teatr – hayot ko'zgusi. U bizni o'ylashga va shu orqali hayotiy zarur xulosalarga kelishimizga turtki beradi.

Farhod ESHMO'MINOV



LET'S PLAY A GAME!

How many hidden words can you find?
Words are going both, forward and backwards (↕).

H A N I M A L M E G O D O R K A N G A	LF M	O N K E Y D F P P D R I B S M L T A C	G N E	E N B U A S F A R M P E T E L E P H A	X E R C I S E L S S E U O P E H S N	ONE	M L R O T R A I N I N G U A O O Z P I	Y G S N A K E R E G I T R U N A
---	------	---	-------	---	--	-----	---	--

ROO LTN UMT

Find these words:

dog, exercise, cow, bird, tiger, food, training, money, snake, rabbit, cat, animal, zoo, plants, sheep, farm, pet, monkey, kangaroo, elephant.

Dinara SHAKIROVA tayyorladi

CROSSWORD

1.	D			
2.		I		
3.	C			
4.			T	
5.			I	
			O	
7.			N	
			A	
9.			R	
10.			Y	

- It is a table for pupils.
- It is a plastic thing and keeps information, musics or games.
- The game is played rows of dark and white.
- It is bird with curved beak and feathers of bright colors.
- It's a picture that is made using paints.
- It's a vegetable with a strong smell and taste.
- Its one of the very large areas of salt water that cover most of the earth.
- It means how old something.
- Its something you give someone, and synonym of gift.
- Its a dog that has just been born.

Nozima YO'LDOSHEVA tayyorladi

FIND THE NAMES OF THESE THINGS!

(NARSALARNING NOMINI TOPING)

THE CAT DOCTOR

Short story

Once there was a man who loved birds a lot. He made an aviary. It was a large cage in which the birds could live and even fly around inside. Everyday, the man would keep fresh grains, nuts and water for the birds.

One day in the absence of the man, a clever cat dressed up as a doctor and went to the aviary.

There he called out, «Birds! My friends ... open the door. I have come to check you up. Your master has sent me.»

The birds were intelligent enough to comprehend the tricky trap being laid by the wily cat. They said, «You are a cat and our arch enemy. We won't open the door at all.» «But friends I am a doctor. I cannot harm you. And this is a professional visit.»

But the birds refused to open the door of the aviary. The cat went away defeated. Then the birds chirped out loud, «Just like a leopard never changes its spots, we all know a cat never mends its ways.»

New words:

- aviary – qafas
- grain – don
- comprehend – tushunmoq
- trap – tuzoq
- wily – mug'ambir
- defeat – mag'lub bo'lmoq
- chirp – chug'urlamoq
- mend – tuzatmoq



MY PET

Someone asked me yesterday:
«Have you got a pet?»
I sadly had to answer them:
«No, I haven't yet!»
But now I've found a butterfly,
And we are great friends, he and I.



RIDDLES — TOPISHMOQLAR



The bark is thick
Surface is stone.
If you split it
Inside you can eat.

In line twelve soldier
They have the same figure
If peel the wood's bark
They give the colour to picture.



Dilfuza KAMOLJONOVA



Abdusamad YUNUSOV,
faxriy muallim

ENG KATTA BOYLIK

Bizning gul hovli,
Juda chiroyli.
Kunduz quyoshli,
Keehasi oyli.
Tinch bo'lsa zamin,
Deydilar oyim.
Tip-tiniq osmon.
Eng katta boylik.



ONAJONIM

Qalbi beg'ubor, oppoq,
Niyati ezgu har chog',
Olamda yagona, bog',
Onajonim bor bo'ling.



Bedor beshik qoshida,
Ne savdolar boshida.
Halovat yo'q oshida,
Qanoatga yor bo'ling.



MAHALLAM

Porlar mehr bo'sag'asida,
Mahallam bu kichik Vatandir.
Tozalikda yagona, tambo,
Unda hamma bir jon-u tandir.

Misli guldur unda o'sgan qiz,
Yigitlari shunqordir asli.
Unda o'tgan lahazar bayram,
Unda o'tgan onlar baxt fasli.

Nozima SHERBEKOVA,
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi
1-ixtisoslashtirilgan maktab-internatining
9-sinf o'quvchisi

OLCHA

Bir tup olcha taqibdi,
Ming yoqut ziragini.
Singlim termilib unga,
So'ylaydi tilagini.

So'ng shimarib bilagin.
«Ziraklarni» terardi.
Tabiat unga olam.
Ajjib naqshin berardi.



Mehr to'la ko'zlari,
Shirin-shakar so'zlari.
Jonfidodir o'zlari,
Elga iftixor bo'ling.

Oilada farishta,
Atrof toza, sarishta.
Ibrat erur har ishda,
Onajonim, bor bo'ling.

Rahimajon IBROHIMOVA,
Xorazm viloyati, Xiva shahridagi
11-umumta'lim maktabi o'quvchisi

SOVG'A

(Hikoya)

Bugun yakshanba, Nasibaning oyisi tug'ilgan kun. Ertalabdan Rustam aka va Oydin opa bozorga o'tlanishdi.

Shu payt Nasiba dadasidan sekingina, onamning tug'ilgan kuniga nima sovg'a qilsam ekan, deya so'radi.

– Voy, aqlli qizim-ey, onangni xursand qilmoqchimisam? Senga aytсам, sovg'aning katta-kichigi bo'lmaydi. Eng muhimi, e'tibor.

– E-ha, topdim! – dedi xursand bo'lib Nasiba.

Shu payt sumkasini ko'tarib onasi qo'shni xonadan chiqib keldi.

– Qizim, bozorga borib kelgunimizcha darslaringni tayyorlab o'tir. Biz tezda qaytamiz, – dedi Oydin opa.

Ular bozorga ketishlari bilan Nasiba uylarni yig'ishtirishga kirishdi. Oynalarni artdi, xonalarni supurib-sidirdi, idish-tovoqlarni yuvdi. Hovlini ham chinnidek qilib tozalab qo'ydi.

Ish tugashini kutib turgandek ko'cha eshigi taqilladi. Nasiba yugurib borib, eshikni ochdi. Ro'parasida oyisi va dadasi turishardi. Ular ichkariga kirishgach, hammayoqning orastaligidan hayratga tushishdi.

– Hali bozorda tezroq borib, uylarni yig'ishtirishim kerak, deya yotgan edingiz. Mana, qizimiz sizning o'ringizga hammayoqni top-toza qilib qo'yibdi. Biz esa uni yosh bola deb yuribmiz, – dedi ko'zlari chaqnaib Rustam aka.

– Barakalla, qizim, tug'ilgan kunimga eng a'lo sovg'a tayyorlabsam, – deya Nasibani bag'riga bosdi onasi.

Dildora QARSHIBOYEVA,
Jizzax viloyati,
Zomin tumanidagi
16-umumta'lim maktabining
7-sinf o'quvchisi

ONA BULOQ

Bir kuni pichan o'rimiga ketayotсам, ro'paramdan buloq chiqib qoldi. Xursand bo'lib suvdonimni to'ldirib oldim va dalaga jo'nadim. Shu-shu har gal pichan o'rimiga borganimda buloq suvidan olishga odatlandim.

Bir kuni buloqqa nom qo'ymoqchi bo'ldim. O'ylay-o'ylay unga «Ona buloq» deb nom berdim.

Men suv bahona «yaqin do'stim» bilan tez-tez sirlashadigan, u bilan o'z orzularim haqida suhbatlashadigan bo'ldim. Har gal ezgu niyatlarim haqida so'zlaganimda, uning qaynab chiqishi tezlaganday tuyuladi. Buloqning yon-atrofini xas-xashakdan tozalayotganimda biqir-biqir qaynayotgan suvdan «rahmat» degan sado kelganday bo'laveradi.



Azimjon ERGASHEV,
Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi
46-umumta'lim maktabining
5-«B» sinf o'quvchisi



NIZOMIDDIN
olgan surat

QUYOSH SOG'INCHI



Quyoshim, banchalar sirlisan o'zing.
Zarrin nurlaringdan bahra olaman.
Sening saxovating oldida goho:
Ojiz bir kimsadek o'ylab qolaman.

Merkuriy yaqindir sening qalbingga,
Dilkash sayyoradan so'zlayman men ham
Garchi, bo'lmasam-da senga yaqinroq,
Butun olam-jahon nurga jamuljam.

Borolmay yoningga doim men halak.
Issiq taffingga zor qilma men!
Yerda anchagina do'stlaring ham bor,
Ular ham yurakdan sevishar seni.

Qalbida ezgulik nuri odamzod,
Mehrini ulashar bir-birlariga.
Quyoshim arzitydi, sen ham umrbod.
Zarrin nur taratsang yoniq dillarga.

Malikabonu TOLLIBOYEVA,
Samarqand viloyati, Oqdaryo tumanidagi
SamDU akademik litseyining
2-bosqich o'quvchisi



Tug'ilib o'sgan yurtga munosib farzand bo'lish, uning nomini ulug'lash har bir inson uchun ulkan baxtdir. Ana shunday baxtga sazovor bo'lganlar esa yuksak e'tirofga munosibdirlar.

Shu yilning 12-iyun – 13-iyul kunlari Braziliyada o'tkazilgan futbol bo'yicha jahon chempionatida o'zbekistonlik FIFA referisi Ravshan Ermatov ishtirok etib, o'zbek futbol hakamlari yuksak salohiyatga ega ekanini butun dunyoga namoyon etdi. Prezidentimiz Islom Karimovning 2014-yil 25-iyuldagi farmoniga muvofiq xalqaro maydonda mamlakatimizning sport sohasidagi shon-shuhratini oshirish, milliy futbol hakamlari maktabini rivojlantirish ishiga


qo'shgan munosib hissasi uchun O'zbekiston Futbol federatsiyasining xalqaro toifadagi hakami, FIFA referisi Ravshan Ermatov «El-yurt hurmati» ordeni bilan mukofotlandi. Yaqinda poytaxtimizdagi Olimpiya shon-shuhrati muzeyida o'zbekistonlik hakamni taqdirlashga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi. Unda FIFA referisi, Osiyoning 4 karra eng yaxshi hakami Ravshan Ermatovga Vatanimizning yuksak mukofoti – «El-yurt hurmati» ordeni hamda Prezident sovg'asi – «Malibu» avtomobili tantanali ravishda topshirildi.

– Ushbu yuksak mukofot uchun Prezidentimizga cheksiz minnatdorlik bildiraman, – deydi Ravshan Ermatov. – Shuni quvonch bilan aytamanki, mamlakatimizda sportni, xususan, futbolni rivojlantirishga qaratilayotgan yuksak e'tibor tufayli jahon chempionatida hakamlilik qilish baxtiga muayassar bo'ldim. Bundan keyin ham xalqimiz ishonchini to'la oqlashga, ona Vatanimiz nomini xalqaro maydonda munosib himoya qilishga va'da beraman.

Shu o'rinda ta'kidlash kerak, Istiqlol yillarida mamlakatimizda yosh avlod o'rtasida sportning futbol turini ommalashtirish, o'zbek futboli shuhratini butun dunyoga yoyish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning 2011-yil 19-yanvardagi «2011 – 2013-yillarda respublikada futbolning moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash va uni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori bu boradagi xayrli ishlarida dasturulamal bo'lmoqda.

– Bugun diyorimizda futbol hakamlarining yangi avlodi yetishib chiqmoqda, – deydi R.Ermatov. – Kelajakda ular bilan bilim va tajribamni o'rtoqlashishni maqsad qilganman.

YURT NOMIN SHARAFLAGAN — ELDA AZIZ



K. O'LMASOV olgan surat

Kuni kecha Osiyo futbol konfederatsiyasi oktabr oyida Myanma mamlakati mezbonlik qiladigan U-19 yoshlar o'rtasidagi Osiyo chempionati final bosqichi bahslarida ishlaydigan hakamlar ro'yxatini e'lon qildi. Quvonarlisi, hamyurtimiz Ravshan Ermatov mazkur nufuzli musobaqa o'yinlarini boshqarib boradigan hakamlar qatoridan joy oldi. Unga qanotda yana bir yurtdoshimiz FIFA laynsmeni Abduhamidullo Rasulov yordam beradi. Ikkinchi qanot hakamining nomini OFK turnir arafasida ma'lum qiladi. Biz hamyurtlarimizning Osiyo chempionatida munosib ishtirok etishlariga tilakdoshmiz.

Sa'dullo TURSINOV



Unda Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo va Samarqand viloyatlari mahallalari yoshlari g'oliblik uchun maydonga tushdi.

Respublika «Mahalla» xayriya jamoat fondi tomonidan bir qator tashkilotlar bilan hamkorlikda har yili an'anaviy o'tkazib kelinayotgan mazkur musobaqa mahallalarda sportni rivojlantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni jismonan baquvvat, ma'nan barkamol etib tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Yurtimizdagi barcha mahalla yoshlari qamrab olinayotgan ushbu tadbir orqali iste'dodli sportchilar kashf etilmoqda, olis va chekka

SPORTGA OSHNO QALB

U dastlab 2006-yili Samarqand shahrida «Oyama Kiokushinkay-kan» karate-do sport klubida o'tkazilgan do'stlik uchrashuvida 2-o'rinni egallab, diplom bilan taqdirlandi. Yaqinda umidli sportchi Samarqand shahrida o'smirlar va yoshlar o'rtasida «Sog'lom bola» yiliga bag'ishlab o'tkazilgan musobaqada ham faxrli 2-o'rinni egallab, murabbiylari ishonchini oqladi. O'z ustida tinmay izlangan yosh sportchi qizil, keyin esa ko'k belbog' sohibasiga aylandi.

Hozirda Kompyuter texnologiyalari kollejining jismoniy tarbiya bo'limida tahsil olayotgan Elviraning kelajakdagi orzulari bisyor. Biz esa unga bu yo'lda omad tilab qolamiz.

Saidmurod aka va Albina opa xonadonida to'ng'ich farzand Elvira dunyoga kelganida oila a'zolari cheksiz quyonishdi. Otasi qizining sog'lom va teitk bo'lib ulg'ayishi uchun 6 yoshida uni Samarqand viloyati, Ishtixon tumanidagi 4-umumta'lim maktabi goshida ochilgan karate to'garagiga olib bordi. O'ngan davr mobaynida Elvira bir qator yutuqlarni qo'lga kiritdi.

Xonbibi MAHAMOVA

G'OLIBA QIZLAR TAQDIRLANDI

Mamlakatimiz mustaqilligining 23 yilligi va «Sog'lom bola yili» munosabati bilan Nukusda 14-16 yoshli qizlar o'rtasida suzish musobaqasi o'tkazildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamda Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali tomonidan tashkil etilgan ushbu musobaqada Nukus shahri, Ellikqal'a, Chimboy va Taxtako'pir tumanlaridan sportchi-qizlar ishtirok etishdi.

15-16 yoshli qizlar o'rtasida 50 metr masofaga erkin usulda suzish musobaqasida Marzima O'razimbetova birmunchi o'rinni egalladi. Ikkinchi o'rinni Oygnul Mirzaqulovaga nasib etgan bo'lsa, uchinchi o'rinni Ramaza Juzmuratova qo'lga kiritdi.

14 yoshli qizlar o'rtasida Shahrizoda Quatboyeva, Aziza Nazarova, Aynura Jumaboyeva dastlabki uch o'rinni band etdi.

YOSH FUTBOLCHILAR MAYDONDA

Samarqandda mahalla yoshlari o'rtasida «Futbolimiz kelajagi» respublika musobaqasining mintaqaviy bosqichi o'tkazildi.

hududlarda sportning ommaviyligini oshirishga erishilmoqda.

Bahslar yakuniga ko'ra, 9 – 10 va 11 – 12 yoshli bolalar jamoalari o'rtasida g'oliblik Samarqand viloyati Jomboy tumanidagi Alisher Navoiy nomidagi hamda Pastdarg'om tumani, Sinchi mahallasi vakillariga nasib etdi. Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanidagi Gulobod mahallasi o'smirlari esa 13-14 yoshlilar o'rtasida o'zlarining tengsiz ekanliklarini isbotlashdi.

G'olib jamoalar musobaqaning mamlakat bosqichida ishtirok etishdi.

Shoh MUHAMMAD

Muxtor XUDOYQULOV

NASRIY MASALLAR

O'CHIRG'ICH NIMA DEYDI?

– O'chirishga o'chiraman-u, lekin asliday qila olmayman, baribir izi qoladi. Yaxshisi, xatoga yo'l qo'ymanglar, – derdi O'chirg'ich.

– Nega men bittaman-u, sizlar – ikkitasizlar? – deb qoldi Til Quloqlarga.
– Kamroq gapirib, ko'proq tinglash uchun-da, – deyishdi Quloqlar.



TIL BILAN QULOQLAR

TERAK BILAN CHINOR

Kundan kun bo'y cho'zayotgan Terak yonidagi Chinorga dedi:
– Muncha imillaysan, o'smaysanmi tezroq?
– Men shoshilmayman, lekin uzoq yashayman, – dedi Chinor.



Duppa-durust uchib turgan Varrak u yoq-bu yoqqa qiyshayib, shox tashlay boshladi.
Yo'q, endi u ucholmaydi. Qulashi aniq.



SHOX TASHLAGAN VARRAK

RANGLAR MO'JIZASI

Bir-biridan chiroyli rasmlar chizib, ustozining olqishiga sazovor bo'layotgan yosh rassom Saydullo Adhamov Andijon viloyati, Shahrixon tumanidagi 60-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi. Yosh iqtidor egasi ona tabiat qo'ynida sayr qilishni yoqtirgani bois, u chizayotgan rasmlarning aksariyatida yon-atrofimizni o'rab turgan borliq go'zalligi tasvirlanadi. Keling, Siz ham Saydulloning rasmlariga baho bering.



Peremda qizg'ir

Aziz qizlarjon! Gazetamiz orqali tavsiya qilayotgan pishiriqlar-u salatlarimiz oila manzur bo'lmoqdam? Agar maslahatlarimiz sizga asqotayotgan bo'lsa, bundan juda xursandmiz. Bugun esa mazali guruchli taomning tayyorlanishi haqida so'z yuritamiz. O'ylaymizki, u taomnangizdan mustahkam joy egallaydi.

GURUCHLI ANTIQA TAOM

Kerakli masalliqlar: (4 kishi uchun): kichik piyolada guruch, chorak choy qoshig'ida sirka, 3 dona tuxum, 2 ta pomidor, 1 dona baqlajon, 2 ta kichikrog bulg'or qalampiri, 2 dona piyoz, tuz, ta'bga ko'ra munch.



Dastlab sirli idishga suv solib, qaynab chiqqach, guruch solamiz. Qaynash jarayonida sirka solib yuborsangiz, guruch yaltiroq va dona-dona bo'lib pishadi. Pishgan guruchning suvi silqitib qo'yiladi. Tovaga ozroq yog' solib, qizdiriladi. Avvaliga halqa shaklida to'g'ralgan piyoz, yirik bo'laklarga bo'lingan pomidor, mayda to'g'ralgan baqlajon, bulg'or qalampiri, ta'bga ko'ra tuz solib, qovuriladi.



Tuxumlar yaxshilab atalanadi va pishgan guruch bilan aralashiriladi. Tovada pishayotgan qayla ustiga guruchli aralashma bir tekisda solinib, usti tekislanadi va tovaning qopqog'i yopiladi. Taom 10 daqiqada tayyor bo'ladi. Uni tovaning laganchaga ag'darib olinadi hamda bo'laklarga bo'linib, ko'katlar bilan bezatiladi va likopchalarga solinib, dasturxonga tortiladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

TOPISHMOQ

Rangi har xil – pushti, oq, juda ham bo'lar yumshoq. So'zimni aytсан ochiq, Buni deydi-lar...



E'zoza MUHAMMEDOVA, poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 193-umumta'lim maktabi 7-sinf o'quvchisi

«ENG, ENG...» KROSSVORDI

Eniga: 1. Eng qadimiy adabiy janr. 6. Dunyodagi eng baland sharshara. 7. Odamzod qo'lga o'rgangan birdan-bir hasharot. 8. Eng ko'p tarqalgan va eng ko'p suv ichadigan sabzavot.

Bo'yiga: 2. Chilidagi eng katta cho'l. 3. AQSHning eng yirik shtati. 4. Qo'qon adabiy muhitida 200 dan ortiq xotin-qizlarga she'riyatdan saboq bergan otlardan eng mashhuri. 5. Eng qadimiy o'lehovlardan biri.

Anvar MIRZAZODA tuzdi

	1	2	3	
4				5
6				
7				
	8			

8 BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIRI



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

4-avgust 2014

TAHRIR HAY'ATI: Omonulla YUNUSOV, Abdug'ani XOLBEKOV, Bahodir G'ANIYEV, Svetlana INOMOVA, Murtazo SULTONOV, Zoir ISAJONOV, Feruza JALILOVA, Sa'dullo TURSINOV (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib), Sobitxon TURG'UNOV, Zikrilla TESHABOYEV

Navbatchi
muharrir
Dilorom
HOTAMOVA
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'gli

Manzilibiz:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 30108
Buyurtma – S 552